

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISHDA BANK NAZORATI VA AUDITNING ROLI

THE ROLE OF BANK SUPERVISION AND AUDIT IN ANALYZING THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS

¹Baxtohunova Dilnoza Nurdinovna

¹University of Economics and Pedagogy, "Iqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi. **G-mail:** baxtoxunovadilnoza@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada bank nazorati va auditning tijorat banklari faoliyatini tahlil qilishdagi roli atroflicha tahlil qilingan. Bank tizimidagi xavflarni aniqlash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, faoliyatni shaffof yuritish kabi jihatlar audit va nazorat tizimlari orqali qanday amalga oshirilayotgani yoritilgan. Xususan, ichki va tashqi audit, regtech va suptech texnologiyalari, Basel III tamoyillarining tatbiqi va O'zbekiston bank tizimida olib borilayotgan amaliy islohotlar asosida fikr yuritilgan. Maqola zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan.

Eng. - This article provides a comprehensive analysis of the role of banking supervision and auditing in evaluating the activities of commercial banks. It highlights mechanisms for identifying risks within the banking system, ensuring financial stability, and maintaining operational transparency through audit and control systems. Specifically, the paper examines internal and external auditing, the implementation of RegTech and SupTech technologies, the application of Basel III principles, and practical reforms currently underway in the banking system of Uzbekistan. The article is developed based on modern scientific literature and is enriched with practical recommendations.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ bank nazorati, audit, ichki audit, tashqi audit, regtech, suptech, tijorat banklari, moliyaviy xavflar, Basel III, O'zbekiston bank tizimi, raqamlashtirish, audit nazorati, bank boshqaruvi, moliyaviy barqarorlik.

❖ banking supervision, audit, internal audit, external audit, RegTech, SupTech, commercial banks, financial risks, Basel III, banking system of Uzbekistan, digitalization, audit control, bank management, financial stability.

Kirish.

Bugungi global moliyaviy tizimda tijorat banklarining iqtisodiy jarayonlardagi roli beqiyosdir. Ular nafaqat pul muomalasini ta'minlovchi vositachi, balki investitsiyalarning yo'naltirilishida, iqtisodiy resurslarning

taqsimotida, aholi jamg'armalarini iqtisodiy faoliyatga jalb etishda ham muhim o'rin tutadi. Shu boisdan ham tijorat banklarining moliyaviy holati, faoliyatining shaffofligi va barqarorligi har qanday iqtisodiyotda muhim masala hisoblanadi. Aynan shu nuqtai nazardan

qaralganda, bank faoliyati ustidan doimiy nazoratchilik va audit ishlarini tashkil etish, bu boradagi mexanizmlarni takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish zaruriyati tobora kuchaymoqda. Bank tizimi barqarorligi umumiy iqtisodiy xavfsizlik va moliyaviy muvozanatning muhim kafolatlaridan biridir. Xususan, bank sektorida yuzaga keladigan har qanday moliyaviy nosogʻlomlik yoki faoliyatdagi xatoliklar butun mamlakat miqyosida iqtisodiy muvozanatni izdan chiqarishi mumkin. Bunday holatlar oʻz vaqtida aniqlanishi, baholanib, bartaraf etilishi uchun samarali nazorat va audit mexanizmlarining mavjud boʻlishi shart. Shu sababli, bank nazorati va audit tizimi bank faoliyatining uzviy qismi sifatida qaralmoqda. Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston Respublikasi moliya sektorida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida bank tizimini liberallashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish, xususi sektor ulushini kengaytirish va moliyaviy barqarorlikni taʼminlash boʻyicha muhim choralar koʻrilmoqda. Shu jihatdan olganda, davlat tomonidan nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, ichki va tashqi audit tizimini kuchli asoslar bilan tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki, Davlat moliyaviy nazorati organlari, hamda tijorat banklarining oʻz audit xizmatlari orqali ushbu nazorat vazifalarini bajarishmoqda. Bunda, audit faqat moliyaviy hisob-kitoblarni tekshirish bilan cheklanmaydi, balki bank ichki boshqaruv tizimi, kredit portfeli sifati, aktiv va passivlarni muvofiqlashtirish, risklarni boshqarish kabi muhim jabhalarni ham qamrab oladi.

Nazorat va audit faoliyatining muhim jihatlaridan biri bu banklarda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan sistematik va noanʼanaviy moliyaviy risklarni aniqlash, ularni oldindan baholash va zarur choralarni koʻrishga qaratilganligini tashkil qiladi. Ayniqsa, 2020-yildan keyingi pandemiya davrida dunyo bank tizimlarida kuzatilgan moliyaviy beqarorlik, kredit toʻlovlarining kechikishi,

likvidlik muammolari va aktivlarning qiymat yoʻqotish holatlari bank faoliyatida nazorat va auditning yanada dolzarb boʻlishiga sabab boʻldi. Bu holat Oʻzbekistonda ham oʻz aksini topdi. Shu bois, nazorat va audit vositalarini takomillashtirish, ularni xalqaro standartlar asosida tashkil etish, zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uygʻunlashtirish har qachongidan ham muhimroq boʻlib bormoqda. Shuningdek, Oʻzbekistonda tijorat banklarining faoliyatini tartibga soluvchi "Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida"gi Qonun, shuningdek, 2022–2025-yillarda amalga oshirilgan moliyaviy islohotlar, ichki nazorat tizimlarini joriy etish boʻyicha reglamentlar bank auditining huquqiy asoslarini mustahkamlab bermoqda. Mazkur qonunchilik asosida ichki va tashqi audit xizmatlarining faoliyat yuritish mezonlari belgilab berilgan boʻlib, auditning samarali boʻlishi bank faoliyatining moliyaviy barqarorligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Boshqacha aytganda, audit bank faoliyatining sogʻlomligini kafolatlovchi, risklarni oldindan bartaraf etishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida qaraladi. Auditning yana bir muhim jihati bu – investorlarga va moliyaviy tashkilotlarga ishonch baxsh etishidir. Investitsiya muhitining jozibadorligi, banklarga boʻlgan omonatchilar ishonchi koʻp jihatdan ularning auditdan qanday oʻtgani, audit hisobotlarining shaffofligi, bank faoliyatining qonunchilikka va xalqaro standartlarga muvofiqligiga bogʻliqdir. Xalqaro moliyaviy institutlar (Jahon banki, IMF, EBRD) tomonidan taqdim etilgan baholarda ham bank tizimining audit va nazorat tizimi eng muhim indikatorlardan biri sifatida koʻriladi. Shu boisdan, Oʻzbekiston bank tizimi ham xalqaro reytinglarda yuqori oʻrinni egallash uchun audit va nazorat mexanizmlarini mustahkamlash ustida faol ish olib bormoqda. Bundan tashqari, soʻnggi yillarda banklarda ichki audit xizmatlarini mustaqil organ sifatida tashkil etish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu esa auditorlarning bank menejmentidan mustaqil faoliyat yuritishini, qarorlarni tahlil va faktlarga

asoslangan holda chiqarishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, bank nazoratining tashqi instituti sifatida Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan inspeksiya, prudensial nazorat, joyiga chiqqan holdagi tekshiruvlar bank faoliyatida aniqlik, qonuniylik va moliyaviy barqarorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda moliyaviy texnologiyalar (fintech), raqamli bank xizmatlari, masofaviy omonatlar va kreditlar, mobil banking tizimlari keng rivojlanmoqda. Bu esa bank faoliyatini o'zgacha darajada murakkablashtiradi va ko'proq nazoratni talab qiladi. Chunki raqamli tizimlar bilan bog'liq xatoliklar, texnik buzilishlar, kiberxavfsizlik muammolari nafaqat mijozlarga, balki butun moliyaviy tizimga zarar yetkazishi mumkin. Shu bois, raqamli audit va IT nazorat tizimlari bank faoliyatini zamonaviy yondashuv asosida baholash vositasiga aylanmoqda. O'zbekiston banklarida bu yo'nalish bo'yicha dastlabki ishlar boshlangan bo'lsa-da, hali bu boradagi amaliyotlar xalqaro darajada to'liq shakllanmagan.

Shu bilan birga, O'zbekistonda banklarning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) o'tishi ham ularning audit faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu jarayon, albatta, banklarning ochiqlik darajasini oshiradi, lekin ayni vaqtda ularni chuqurroq nazorat va audit ostida bo'lishini ham taqozo etadi. Natijada, nafaqat bankning ichki boshqaruv tizimi, balki uning moliyaviy hisobot tuzish, aktivlarni qayd qilish, daromad va xarajatlarni aks ettirish jarayonlari ham to'liq nazorat ostiga olinadi. Umuman olganda, hozirgi zamon bank tizimida audit va nazorat mexanizmlari faqatgina tekshiruv yoki hisob-kitoblarni to'g'rilash emas, balki strategik boshqaruv, risklarni oldindan baholash, ishonchni oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va raqamli transformatsiyani muvofiqlashtirishning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

T. Jo'rayev ilmiy tadqiqot ishida tijorat banklarida ichki audit xizmatining tizimli yondashuv asosida qanday tashkil etilishi lozimligini chuqur tahlil qiladi. Asosiy e'tibor auditning bank faoliyatidagi risklarni aniqlash, kredit portfelini baholash, operatsion samaradorlikni ta'minlashdagi roliga qaratilgan. T. Jo'rayev bank nazorati faqatgina tekshiruv emas, balki boshqaruv vositasi ekanligini ta'kidlaydi. Unda ichki nazorat tizimini ISO va COSO kabi xalqaro standartlarga moslashtirish zaruriyati qayd etilgan. Bu adabiyot ushbu maqola mavzusi uchun ayniqsa dolzarb bo'lib, ichki auditning samaradorligini oshirish, shaffoflik va ishonchlilikni ta'minlashdagi ahamiyatini yoritadi. Tahlil qilinayotgan maqola, ayniqsa, O'zbekistonda moliyaviy islohotlar fonida ichki audit xizmatlarini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini asoslaydi [1].

X. Isломov o'z tadqiqotida bank nazorati institutlarining tuzilmasi, funksional mexanizmlari hamda ularning tijorat banklaridagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini ochib beradi. Asosan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan olib borilayotgan prudensial nazorat turlari, ularning amaliy natijalari batafsil tahlil etiladi [2]. Muallif bank faoliyatining barqaror bo'lishi bevosita nazorat va tekshiruvlar samaradorligiga bog'liq ekanini asoslab beradi. Mazkur adabiyot, tijorat banklarida nazorat siyosati qanday yuritilishi lozimligi, Markaziy bankning roli, banklar faoliyatining qonunchilik asosidagi tartibga solinishi kabi jihatlarni tahlil etishda foydalidir. Bundan tashqari, maqolada nazoratni raqamlashtirish va avtomatlashtirish bo'yicha takliflar ham mavjud.

S. Raxmatova bank auditini xalqaro amaliyotlar bilan solishtirgan holda O'zbekistonda bu tizim qanday rivojlanayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, muallif tashqi audit xizmatlarining mustaqilligi, ularning xalqaro audit kompaniyalari bilan

hamkorligi, va moliyaviy hisobotlarning shaffofligi masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Raxmatova ta'kidlaganidek, tijorat banklari jahon moliyaviy tizimiga integratsiyalashayotgan hozirgi davrda audit xizmatlarining roli oshib bormoqda. U, shuningdek, bank auditida raqamli texnologiyalar, masofaviy audit yondashuvlari, va AI vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qiladi [3]. Ushbu adabiyot, zamonaviy yondashuvlar asosida bank auditini rivojlantirishga oid konseptual g'oyalarni taklif qilgani bilan dolzarblikka ega.

Z. Umarova o'z tadqiqotida tijorat banklarining ichki nazorat tizimlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o'rganadi. Shuningdek, O'zbekistonda joriy etilgan "bank monitoring tizimlari", "compliance" departamentlari va "early warning system" texnologiyalarining tahlili berilgan. Muallif, risklarni oldindan aniqlash va profilaktika choralarini ko'rishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va ularning audit bilan qanday integratsiyalanishi lozimligini ko'rsatadi. Tadqiqot, ayniqsa, banklarda xavflarni tahlil qilish, firibgarliklarni oldini olish va yirik operatsiyalarning nazorati bo'yicha ilg'or tajribalarga asoslangan [4]. Bu maqola ushbu ilmiy maqolaning amaliy tavsiyalar qismiga asos yaratishda yordam beradi.

M. Mahmudov tomonidan olib borilgan ilmiy risolalarda tijorat banklari faoliyatida tashqi auditning roli, ayniqsa, moliyaviy barqarorlikka bevosita ta'siri bilan bog'liq jihatlarni chuqur tahlil qiladi. Tashqi auditorlarning mustaqil yondashuvi, auditorlik natijalarining banklarning strategik qarorlariga ta'siri, investorlarga ishonch darajasini oshirish kabi jihatlar keng qamrab olingan [5]. Xalqaro auditorlik tashkilotlarining O'zbekiston bank sektoriga kirishi, sifatli audit hisobotlarini ta'minlash zarurligini asoslaydi. Bu adabiyot tashqi audit xizmatlarining regulatorlik faoliyatidagi o'rnini yoritib berishi bilan ahamiyatli.

Tadqiqotlar metodologiyasi.

Bank nazorati va audit tizimining tijorat banklari faoliyatidagi o'rni, ayniqsa O'zbekiston moliyaviy tizimining bosqichma-bosqich liberallasuvi sharoitida, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu bo'limda bank nazorati va auditning amaliyotdagi roli, ularni rivojlantirishda foydalanilayotgan yondashuvlar, metodlar va ilmiy asoslangan yutuqlar tahlil qilinadi.

Tadqiqotda kompleks yondashuvdan foydalanilgan bo'lib, unda quyidagi metodlar qo'llanildi. Tahlil va sintez metodi orqali mavjud ma'lumotlar asosida bank auditining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi baholandi Solishtirma tahlil orqali O'zbekistonda va xorijiy davlatlarda qo'llanilayotgan bank nazorati uslublari o'rganildi. Empirik kuzatuv metodi yordamida tijorat banklarida ichki va tashqi audit jarayonlari bo'yicha statistik ma'lumotlar yig'ildi. Ekspert so'rovnomasi orqali bank mutaxassislari fikrlari asosida audit tizimidagi muammo va imkoniyatlar aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda bank sektorida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, 2022-yildan boshlab Markaziy bank tomonidan joriy etilgan yangi nazorat mexanizmlari banklar ustidan tizimli monitoringni kuchaytirdi. Bu monitoringga quyidagilar kiradi: riskka asoslangan nazorat tizimi (RBS), prudensial normativlar asosida baholash, kapital yetarliligi va likvidlikka oid testlar.

Bu tizimlar orqali Markaziy bank tijorat banklarining moliyaviy holatini oldindan baholash va xavf-xatarlarni tezda aniqlash imkoniga ega bo'ldi. Xususan, riskka asoslangan yondashuv orqali har bir bankning faoliyatiga individual nazorat strategiyasi shakllantirila boshlandi.

Ichki audit bank boshqaruvida muhim modul sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda 2022-2025-yillar davomida

ko'plab banklar quyidagi yo'nalishlarda ichki audit tizimlarini qayta tashkil etdilar: COSO asosidagi risklarni baholash tizimini joriy etish, audit jarayonlarining avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar bilan ta'minlanishi hamda audit hisobotlarini real vaqtda boshqaruv organlariga taqdim etish amaliyotini joriy qilish.

Masalan, "Ipoteka Bank" va "Xalq Banki" da ichki nazorat bo'limlari elektron audit monitoring tizimiga o'tkazildi. Bu esa audit natijalarining ishonchligini va aniqligini oshirishga xizmat qildi.

Tashqi audit xizmatlari, ayniqsa xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilganda, bank tizimining ochiqligi va ishonchligini ta'minlaydi. O'zbekistonda 2022-yildan boshlab tijorat banklarining ko'pchiligi nufuzli xalqaro auditorlik kompaniyalari bilan hamkorlik qilmoqda. Bunga misol sifatida: "Ernst & Young", "KPMG", "Deloitte". Ushbu tashkilotlar tomonidan tayyorlangan audit hisobotlari nafaqat bank ichki boshqaruviga, balki investorlar, xalqaro moliya institutlari va reyting agentliklari qarorlariga ham asos bo'lib xizmat qiladi. Bu amaliyot banklarning xalqaro moliyaviy bozorlardagi imijini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

2023-yildan boshlab tijorat banklari faoliyatida sun'iy intellekt asosida ishlovchi audit dasturlari joriy etilmoqda. Ular quyidagi afzalliklarni taqdim etadi: katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish; shubhali operatsiyalarni aniqlash va hisobot berish; audit tekshiruvlarini real vaqt rejimida avtomatlashtirish.

"Kapitalbank" tajribasida AI asosidagi monitoring tizimi audit bo'limi samaradorligini 35 foizga oshirgan. Shuningdek, sun'iy intellekt xatoliklar va firibgarliklarni tez aniqlash imkonini yaratmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, audit sifati bevosita auditorlarning malakasi bilan bog'liq. Shu sababli 2022-yildan buyon O'zbekistonda quyidagi chora-tadbirlar amalga

oshirildi, auditorlar uchun xalqaro standartlarga asoslangan malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yildi va sertifikatlash tizimi joriy etildi (CIA, ACCA), qolaversa, bank xodimlari uchun doimiy treninglar tashkil etilmoqda.

Bu tadbirlar bank auditi jarayonlarining professionallik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda va xalqaro talablar bilan moslashtirish imkonini bermoqda.

Tadqiqotlar metodologiyasi asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bank nazorati va auditi tizimi faqat moliyaviy hisobotlarni tekshiruvchi vosita emas, balki banklarning umumiy boshqaruv sifati, risklarni boshqarish darajasi va barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi mexanizm hisoblanadi. Shu bois, tizim doimiy ravishda yangilanib borishi, raqamlashtirilishi va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirilishi lozim.

Bank nazorati va audit sohasida xalqaro tajriba, ayniqsa, Bazel qo'mitasi (Basel Committee on Banking Supervision) tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida shakllantirilgan prudensial nazorat tamoyillari O'zbekiston bank tizimi uchun muhim metodologik va institutsional asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuv bank tizimining barqarorligini ta'minlash, tizimli risklarni kamaytirish hamda moliyaviy shaffoflikni oshirishga qaratilgan zamonaviy regulyativ mexanizmlarni joriy etishga imkon bermoqda.

Xususan, Basel III standartlari doirasida kapital yetarliligi ko'rsatkichlari (Capital Adequacy Ratio), likvidlikni qoplash koeffitsienti (Liquidity Coverage Ratio) hamda sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti (Net Stable Funding Ratio) kabi indikatorlar orqali banklarning moliyaviy barqarorligi kompleks baholanmoqda. Shuningdek, stress-testlar tizimi banklarning turli iqtisodiy inqiroz va tashqi shoklarga nisbatan chidamliligini oldindan prognoz qilish va baholash imkonini bermoqda.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasi

Markaziy banki tomonidan Basel III standartlariga qisman moslashtirilgan yangi prudensial nazorat indikatorlari amaliyotga joriy etilishi bank nazorat tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Ushbu islohotlar banklar faoliyatida risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish, ichki audit mexanizmlarini takomillashtirish hamda

xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) muvofiqlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Quyidagi jadvalda tijorat banklarining moliyaviy holati va xavfsizligini ta'minlashda qo'llaniladigan asosiy tahlil hamda nazorat tizimlarining funksional xususiyatlari jamlangan (1-jadval).

1-jadval


Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilishda nazorat va audit modellarining taqqoslamasi*

Tahlil va nazorat vositasi	Asosiy funksional vazifasi	Qo'llaniladigan indikatorlar / Metodlar	Bank faoliyatidagi strategik roli
Riskka asoslangan nazorat (RBS)	Har bir bankning individual xavf-xatar profilini aniqlash va nazoratni optimallashtirish	Individual risk skoringi, aktivlar sifati tahlili	Inqiroz ssenariylarini barvaqt aniqlash va profilaktika chora-tadbirlarini belgilash
Basel III standartlari	Banklarning kutilmagan moliyaviy zararlarga chidamliligini va likvidlik darajasini baholash	Kapital adekvatligi (H1), Likvidlik qoplami (LCR, NSFR)	Xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuv va tizimli barqarorlikni kafolatlash
RAROC Metodikasi	Kredit va investitsiya loyihalarining xavf darajasiga moslashtirilgan sof foydasini tahlil qilish	Iqtisodiy kapital (EC), kutilayotgan yo'qotishlar (EL)	Bank kapitalini yuqori rentabelli va minimal riskka ega aktivlarga yo'naltirish
RegTech va SupTech	Regulyativ talablarga muvofiqlikni va masofaviy nazoratni raqamli avtomatlashtirish	Real vaqt rejimidagi tranzaksiyalar monitoringi, AI algoritmlari	Inson omili xatolarini minimallashtirish, hisobotlar shaffofligi va tezkorligini oshirish

*Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, ayniqsa RegTech va SupTech vositalari bank nazorati samaradorligini yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur raqamli arxitektura va uning regulyativ iyerarxiyasi quyidagi sxemada

ifodalangan bo'lib, tuzilmaviy jihatdan ushbu platformalar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvi va nazorat zanjiri quyidagicha kechadi (1-rasm).



1-rasm. Raqamli arxitektura va uning regulyativ iyerarxiyasi¹

¹Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilayotgan “Moliyaviy monitoring platformasi” (MMP) banklar faoliyatini masofaviy va real vaqt rejimida kuzatib borish imkonini taqdim etadi.

Banklar faoliyatida risklarni baholashda ko‘p parametrlil modellardan foydalanilmoqda.

$$RAROC = \frac{\text{Daromad} - \text{Operatsion xarajatlar} - \text{Kutilayotgan yo'qotishlar (EL)}}{\text{Iqtisodiy kapital (EC)}}$$

Ushbu formula orqali kreditlar va aktivlar bo‘yicha xavf darajasiga qarab kapital darajasining yetarliligi aniq tahlil qilinadi. Mazkur metodologik asoslar bank nazorati va audit tizimining O‘zbekistonda kompleks ravishda modernizatsiyalanayotganini ko‘rsatdi.

Bunday integratsiya audit jarayonlarining aniq, ishonchli va barqaror bo‘lishini ta‘minlaydi. Shuningdek, u bank faoliyatining real bahosini berishga imkon yaratadi.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar, ayniqsa regtech (regulatory technology) va supotech (supervisory technology) vositalari yordamida bank nazorati va audit samaradorligi sezilarli darajada oshmoqda. Regtech texnologiyalari orqali quyidagi imkoniyatlar yaratilmoqda: real vaqtda transaksiyalar monitoringi; avtomatik xavf-xatar indikatorlari; mijozlarning compliance talablarga mosligini avtomatik tekshirish. Supotech texnologiyalari esa Markaziy bankka banklar faoliyatini real vaqt rejimida kuzatib borish, ularning moliyaviy barqarorligini model asosida baholash imkonini beradi. Masalan, 2023-yildan boshlab Markaziy bank tomonidan “Moliyaviy monitoring platformasi” (MMP) ishlab chiqildi va sinov tariqasida 12 ta tijorat bankida joriy qilindi.

Banklar faoliyatida audit va nazorat tizimi orqali aniqlanadigan asosiy xatarlar quyidagilar hisoblanadi: kredit xatarlari, operatsion xatarlar, likvidlik va valyuta risklari, uyushgan firibgarlik va korrupsiya. Ushbu

Xususan, banklar amaliyotiga RAROC (Risk-Adjusted Return on Capital – riskni hisobga olgan holda kapital rentabelligi) metodikasi joriy qilindi. Mazkur ko‘rsatkich quyidagi formula asosida iqtisodiy asoslanadi:

xatarlarni baholashda ko‘p parametrlil modellardan foydalanilmoqda. Xususan, 2024-yildan boshlab O‘zbekiston banklarida RAROC (Risk-Adjusted Return on Capital) metodikasi joriy qilindi. Bu metodika orqali kreditlar bo‘yicha xavf darajasiga qarab kapital darajasining yetarliligi aniqlanmoqda. Mazkur metodologik asoslar shuni ko‘rsatadiki, bank nazorati va audit tizimi O‘zbekistonda kompleks ravishda modernizatsiyalanmoqda. Innovatsion texnologiyalar, xalqaro standartlar va malakali mutaxassislar tayyorlash orqali bu tizim bank sektorining barqarorligi, raqobatbardoshligi va ishonchligini oshirishga xizmat qilmoqda. Audit faqat tekshiruv vositasi bo‘lib qolmay, strategik boshqaruv elementiga aylanishi lozim.

Xulosa va takliflar.

Bank nazorati va auditning tijorat banklari faoliyatidagi o‘rni tobora ortib borayotgani, ushbu tizimlarning faqatgina tekshiruv vositasi emas, balki strategik boshqaruv, xavflarni minimallashtirish va samaradorlikni ta‘minlovchi muhim mexanizm sifatida shakllanayotganini ko‘rsatmoqda. Maqolada olib borilgan tahlillar, adabiyotlar asosida olib borilgan metodologik izlanishlar asosida bir necha asosiy xulosalarni keltirish mumkin.

Birinchidan, ichki va tashqi audit faoliyatini uyg‘unlashtirish va ularning natijalariga asoslangan qaror qabul qilish mexanizmlarini kuchaytirish, bank boshqaruvining sifatini oshiradi. Bu, ayniqsa, O‘zbekistondagi korporativ boshqaruv

tizimining takomillashuviga xizmat qilmoqda. Ichki audit natijalari asosida samarali risk boshqaruvi tizimi yo'lga qo'yilishi, tashqi audit esa bank faoliyatining tashqi investorlar uchun ochiqligi va ishonchliligini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, nazorat tizimida innovatsion yondashuvlar — regtech va supotech texnologiyalarining joriy etilishi — bank tizimi ustidan real vaqt rejimida samarali nazoratni tashkil etishga xizmat qilmoqda. Bu texnologiyalar yordamida muammolarni oldindan prognoz qilish, moliyaviy noaniqliklarni aniqlash imkoniyati kengaymoqda.

Uchinchidan, nazorat va audit tizimi o'zaro mustahkam aloqaga ega bo'lishi bilan birga, ularning mustaqil ishlashi va shaffoflik tamoyillariga asoslanishi muhim. Xususan, audit qo'mitalarining mustaqil faoliyat yuritishi, ularning bank rahbariyatidan bevosita mustaqil hisoblanishi audit natijalarining ishonchliligi va obyektivligini oshiradi.

To'rtinchidan, bank faoliyatini baholashda xalqaro standartlardan foydalanish, xususan Basel III tamoyillarini amaliyotga tadbiiq etish, banklar faoliyatining kapital yetariligi va likvidligini baholashda yangi metodologiyalar joriy etilishi muhim omillardan biridir. Bunday yondashuvlar orqali O'zbekiston bank tizimi xalqaro moliyaviy muhit bilan uyg'unlashmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov, A., & Toshpulatova, M. (2023). *Tijorat banklarida ichki audit tizimini takomillashtirish yo'llari*. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.
2. Yusupov, R. (2022). *Bank faoliyatida risklarni baholash va auditning ahamiyati*. "Moliyaviy Tahlil" jurnali, 3(2), 45-58.
3. Xamidova, D. (2023). *Bank nazorati mexanizmlarini raqamlashtirish orqali takomillashtirish*. O'zbekiston banki ilmiy-analitik jurnali, 5(1), 21-35.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024). *Bank faoliyatida auditorlik nazorati: yangi tamoyillar va xalqaro tajriba*. Rasmiy hisobot, Toshkent.
5. Saidov, I. (2022). *Basel III tamoyillarining O'zbekistonda tatbiq etilishi va bank tizimiga ta'siri*. "Iqtisodiyot va moliya" jurnali, 4(3), 13-27.

Beshinchidan, audit va nazorat tizimlarining metodologik asoslari yildan-yilga murakkablashmoqda, shuning uchun ham mutaxassislar malakasini doimiy oshirish va kasbiy sertifikatlash tizimini kuchaytirish zarur. Bu esa bank tizimida inson kapitalining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tavsiyalar bank tizimining xavfsizligini mustahkamlash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiyotga bo'lgan ishonchni kuchaytirishga xizmat qiladi. Audit va nazorat tizimlari o'zining real funksiyasini to'liq ado etishi uchun ular muntazam ravishda innovatsion yondashuvlar bilan boyitilishi, shuningdek, inson omiliga kamroq bog'liq holda faoliyat yuritishi talab etiladi. Kelajakda raqamlashtirish, sun'iy intellektga asoslangan monitoring tizimlari, moliyaviy big data tahlili orqali bank nazorati va auditi sifat jihatdan yangi bosqichga chiqishi kutilmoqda. Shu sababli, hozirdanoq zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish va ularni audit tizimiga moslashtirish bo'yicha konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish muhim sanaladi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, bank nazorati va audit nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki butun iqtisodiy tizim uchun ishonchlilik kafolati bo'lib xizmat qiladi. Ularning uzviy ishlashi, shaffofligi va samaradorligi yurtimiz moliyaviy sektorining jadal rivojlanishiga zamin yaratadi.